

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING MEDIAKOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ONLAYN ELEKTRON TA‘LIM RESURSIDAN FOYDALANISHNING STATISTIK TAHLILI

Ilmiy rahbar: PhD, prof v.b. **S.S.Babadjanov**

Ilmiy maslahatchi: PhD, dots. **I.M.Rasulov**

QDPI TAT 2-bosqich magistranti: **M.Mo‘minova**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining mediakompitentligini rivojlantirishga qaratilgan onlayn elektron ta‘lim resursidan foydalanish o‘qitish statistik tahlili*

***Kalit so‘zlar:** Mustaqil kurs, onlayn kurs, onlayn kurs dasturi, elektron ta‘lim resurs.*

KIRISH. Mamlakatimizda so‘nggi yillar davomida ta‘lim tizimini tubdan isloh etish, ta‘lim sifatini oshirish hamda raqamli ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda IT sohasi bo‘yicha raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda pedagog xodimlarning mediakompitentlik, media madaniyat, media savodxonlik, media ta‘lim. media mahsulotlar yaratish borasidagi bilimlarini, kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish bo‘yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish, mehnat faoliyatidan ajralmagan holda onlayn malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi, masofaviy ta‘limni yanada rivojlantirish orqali o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari shakllantirilmoqda. Bunday islohotlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media mahsulotlardan unumli foydalanib, malakali kadrlarni tayyorlash, kelajagimiz bunyodkori bo‘lmish yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish uchun umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarini mediakompitentligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR. Maklyuhan odamlarni ommaviy axborot vositalarining salbiy ko‘rinishlaridan himoya qilish funksiyasini ta‘limga ta‘sirini ishlab chiqdi. Uning fikricha “ma‘rifat ideal qurol”. Ommaviy axborot vositalari sharoitida insonning psixologik xavfsizligini ta‘minlash (McLuhan,2017: 220) zamonaviy o‘quv ishlarida ta‘lim qiymatiga urg‘u beriladi: "Ommaviy axborot vositalari o‘z ishining aldanchi va tanib bo‘lmaydigan xarakterida hamma narsaga qodir va zaif ta‘sir qilish holatlari shaffoflikka erishiladi.[1]

Ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi bo'yicha o'quv dasturlarini integratsiyalash nuqtai nazaridan, hozirda bayon etilgan strategiyalar YUNESKOning o'qituvchilar va o'quvchilar uchun media va axborot savodxonligi bo'yicha mavjud o'quv dasturi saqlanib qolgan va amal qiladi. Bular:


Mustaqil kurs: OAV va axborot savodxonligi bo'yicha o'quv dasturi stend sifatida taqdim etilishi mumkin kredit(lar) uchun yakka kurs. U barcha o'quvchilar, o'qituvchilar uchun majburiy kurs sifatida taklif qilinishi kerak. O'qituvchilar va boshqa mutaxassislar uchun o'quv rejasi moslashtirilishi mumkin.

Onlayn kurs: Ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi bo'yicha o'quv dasturi barcha o'quvchilar, shuningdek, chaqiruvgacha bo'lgan va amaliyotchi mutaxassislar, jumladan, o'qituvchilar va o'qituvchilar uchun onlayn tarzda taklif qilinishi mumkin[2].

Shularni e'tiborga olgan holda biz umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarini mediakompitentligini rivojlantirish uchun "**Mediakompitentlikni rivojlantirish texnologiyasi**" onlayn kursini tashkil qildik va o'quv dastur shakllantirilib, kursni Flex usulidan foydalangan holda olib bordik. Bu onlayn kursni tashkillash uchun onlayn elektron ta'lim resursidan foydalanishni maqsad qilib oldik.

MUHOKAMA. Elektron ta'lim resursi – o'quv fan (modul)lari bo'yicha tizimlilik, izchillik, o'zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o'quv materiallarini to'liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki Internet axborot tarmog'ida (alohida) joylashtirilgan elektron nashrlar majmuidir[3].



ETR Onlayn va Offline variantlarda tayyorlanadi.



Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz umumiy o'rta talim muassasalari informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini mediakompitentligini rivojlantirish maqsadida WordPress dasturi imkoniyatlaridan foydalanib "Mediakompitentlikni rivojlantirish texnologiyasi" nomli onlayn kurs elektron ta'lim resursini ishlab chiqdik.

Resurs O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan rasmiylashtirildi (Guvohnoma № DGU 23159).

“Mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi” onlayn elektron ta’lim resursining ishlash algoritmi quyidagicha.



NATIJALAR: “Mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi” onlayn kurs elektron ta’lim resursidan foydalangan holda olib borilgan tajriba-sinov ishlarimizda quyidagi natijalarga erishdik.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalari informatika va axborot texnologiyalari o’qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish muammosining holatini aniqlash maqsadida Andijon viloyatining Buloqboshi MVMTB va Andijon shahar MVMTBning informatika va axborot texnologiyalari fani o’qituvchilari tanlab olindi. Buloqboshi tumani tajriba guruhi, Andijon shahar nazorat guruhi sifatida olindi.

Guruhlar	O’qituvchilar soni	Baholash mezonlari		
		5	4	3
Tajriba guruhi	40	14	12	14
Nazorat guruhi	40	11	12	17

Ushbu natijalarga ko'ra statistik hisobotlar:

Tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtaacha qiymat:

$$\bar{X}_T = \frac{1}{40} [14 * 5 + 12 * 4 + 14 * 3] = \frac{1}{40} (70 + 48 + 42) = \frac{160}{40} = 4$$

$$\bar{X}_H = \frac{1}{40} [11 * 5 + 12 * 4 + 17 * 3] = \frac{1}{40} (55 + 48 + 51) = \frac{154}{40} = 3.85$$

Samaradorlik koeffisienti:

$$\eta = \frac{4}{3.85} = 1.04$$

Tajriba va nazorat guruhlaridagi tanlanma dispersiya va standart xatolik qiymatlarini hisoblaylik

$$S_T^2 = \frac{1}{40} [14 * (5 - 4)^2 + 12 * (4 - 4)^2 + 14 * (3 - 4)^2] = 0.70$$

$$S_T = \sqrt{0.70} = 0.84$$

$$S_H^2 = \frac{1}{40} [11 * (5 - 3.85)^2 + 12 * (4 - 3.85)^2 + 17 * (3 - 3.85)^2] = 0.68$$

$$S_H = \sqrt{0.68} = 0.82$$

Aniqlangan ko'rsatkichlar

$$C_S^T = \frac{0.84}{\sqrt{40} * 4} * 100\% = \frac{0.84}{25.3} * 100\% = 3.33\%$$

$$C_S^H = \frac{0.82}{\sqrt{40} * 3.85} * 100\% = \frac{0.82}{24.35} * 100\% = 3.37\%$$

$$\bar{X}_T - \frac{t * S_T}{\sqrt{N_T}} = 4 - \frac{1.96 * 0.84}{\sqrt{40}} = 4 - \frac{1.65}{6.3} = 3.7$$

$$\bar{X}_T + \frac{t * S_T}{\sqrt{N_T}} = 4 + 0.26 = 4.26$$

$$\bar{X}_H - \frac{t * S_H}{\sqrt{N_H}} = 3.85 - \frac{1.96 * 0.82}{\sqrt{40}} = 3.85 - 0.25 = 3.6$$

$$\bar{X}_H + \frac{t * S_H}{\sqrt{N_H}} = 3.85 + 0.25 = 4.1$$

Statistik qiymatni va Stydent kriteriysi ozodlik darajasini hisoblaymiz.

$$T = \frac{4 - 3.85}{\sqrt{\frac{0.70}{40} + \frac{0.68}{40}}} = \frac{0.15}{\sqrt{0.018 + 0.017}} = \frac{0.4}{0.187} = 2.14$$

$$K = \frac{(0.0003)^2}{\frac{(0.000031)^2}{39} + \frac{(0.000289)^2}{39}} = 78$$

$$t_{0.95}(78) = 2.00$$

Demak yuqoridagi hisob-kitoblarga ko‘ra $T=2.14 > T_{0.95}(78)=2$ bo‘lgani uchun N_0 gipotezani qabul qilishga asoso yo‘q, shuning uchun N_1 gipoteza qabul qilinadi. Bundan ko‘rinadiki biz olib borgan metodika nazorat guruhlarida olib borilgan metodikadan samarali ekanligi statistik usullar orqali tasdiqlandi.

Mezonlar	Nazorat turlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Samaradorlik ko‘rsatkichi
Baholarning o‘rtacha arifmetik qiymati	Test	$X_T^* = 4$	$X_H^* = 3.85$	$\eta = 1.04$



Baholarning o‘rtacha arifmetik qiymatlari bo‘yicha tajriba-sinov ishlari natijalarining diagrammasi

Ushbu diagrammadan ko‘rinib turibdiki tajriba guruhida olib borilgan tadqiqot ishlari samarali. Nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 1.04 baravarga samaradorlik ko‘rsatkichi yuqori ekanligi statistik usullar yordamida isbotlandi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, ta‘lim tizimida elektron axborot ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish natijasida ta‘lim oluvchi o‘quv materialini tez va qulay usulda, ya‘ni ko‘rish, eshitish orqali chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. McLuhan, 2002 – Mcluhan, M. (2002). The medium is the message: An Inventory of Effects. New York: Gingko Press: 159.
2. Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboeva M.H., To'raev A.B. Web texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – T.: 2015. 5-7-16-17 b.
3. https://www.unesco.org/sites/default/files/medias/files/2022/02/Global%20Standards%20for%20Media%20and%20Information%20Literacy%20Curricula%20Development%20Guidelines_EN.pdf